

OGAHIYNING O'LMAS LIRIKASI

Irisboyeva Dilorom Shomurodovna

*Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani 4-O'rta maktab ona-tili va adabiyot fani
o'qituvchisi, olyi toifali*

Annotatsiya: Ogahiy devonida zamon va zamondoshlar obrazi ham katta o'rin tutgan. Shoir o'zi yashab ijod qilgan mashaqqatli davrni mahorat bilan umumlashtirar ekan, zamonga, uning odamlariga munosabat bildirar ekan, ularga baho bersa, unga insonparvarlik, xayrixohlik nuqtai nazaridan yondashadi.

Kalit so'zlar: Shoshmaqom, ton aruz chiston g'azal kuy -ohang.

Ogahiy xalq orasida ko'proq lirik shoir sifatida mashhur. Muhammadrizo o'z she'riyatining oshiqlar qalbiga yaqin, ular bilan tumordek doimo hamroh bo'lishini, ishq ahliga dard-alamlardan xalos qiluvchi fazilatlarga ega bo'lishni istadi va devonini "Ta'viz-ul-oshiqin"(oshiqlar tumori) deb atadi. Bu fikrni shoir ko'pgina she'rlarida faxriya usulida izhor etadi.

Ogahiy, dilso'z nazmingni eshitsa ahli ishq

Bo'ynig'a ta'vizdek aylar ash'oringni band.

Ogahiy "til tiyig'i tortib, maoni mulkini olgan" mahoratli san'atkordir. Uning badiiy qudrati haqida fikrlashishdan avval, shuni e'tirof etish lozimki, yosh Muhammadrizoning "til tiyig'i" Alisher Navoiy mahorat matabida charxlangan, sayqal topgan. Ogahiy nazmidan navoiydan o'rganish izlari, ulug' san'atkor ta'siriga berilish, undan qutulolmaslik, ustozning turli g'oya va ifodalarini o'zgacha talqinlarida sharplash ham ko'rinish qoladi goho.

Navoiy:

Ul quyosh hajrida qo'rqrarmen, falakni o'rtagay,

Har sharorekim, bo'lur bu o'tlug' afg'ondin judo.

Ogahiy:

Barqdek kuydurgusi yetti falakning xirmanin,

Aylamas to'ti takallum shakkaristondin judo.

Bunday hollarda shoirning kamchiligi sifatida emas, balki badiiy mahorat qozonish yo'lidagi dastlabki tajriba, har bir ijodkor tabbiy va qonuniy ravishda boshidan kechiradigan ijodiy jarayon tarzida baholanmog'i ma'qul. Ulug' Navoiyga izdosh o'zbek mumtoz shoirlari qatori Ogahiyga ham fazlu ifixor sanalgan.

Sharqda qadimdan hukmdorlar ma'naviy rahnamolar – ulug' allomalar qurshovida bo'lganlar. Kaykovus, Nizomulmulk, Navoiy singari donishmandlar podsholarga mamlakatni qanday boshqarish to'g'risida yo'l-yo'riqlar ko'rsatganlar, pand-nasihat qilganlar, puxta ta'lim bergenlar."Kobusnoma" "Siyosatnoma"

"Mahbub-ul-qulub" kabi asarlar ana shu maqsadlarda yozilgan. Ogahiy masnaviysi ham aynan shunday -mamlakatni qanday boshqarish to'g'risida yaratilgan asar. Mazmunan maqsad nasihat emas, nasihat unda vosita. Donishmand muallim yosh hukmdorni juda ko'p ezgu va yovuz narsalardan ogoh etishni ko'zlagan. Shuning uchun masnaviyning nomi "Ogohnoma" deb yuritilgan.ⁱ

Ogahiy masnaviysi yirik pandomuz asar bo'lib uni boshdan oyoq tinglash katta sabru toqatni talab etardi. Yuksak mavqeda turib aytilgan bu ulug'vor o'gitlarni siyratiga singdirishi mumkin edi.

Ayo xusravi ma'dalatdastgoh,
Najobat sipehrida raxshanda moh,
Shahanshahliq o'lsun muborak sango,
Madadkor tangri taborak sango.

Singari tabrik so'zları bilan boshlansa-da, bunday tantanavor ruh dastlabki misralardan nariga o'tmaydi. Tabrik ohanglari Muhammad Rahimxoni soniyining otasi Sayid Muhammadxon vafotiga ta'ziya, taskin -tasalli so'zlariga ulanib ketadi:

Ogahiy ezguga ham,yozuvga ham tarafkashlik etmasdan, xolisona nuqtai nazarda turib tasvirlaydi.Shohlar haq tomonidan insonlarga adolat bilan rahnamolik qilish uchun yaratilganiga qaramay, ba'zisi lutfu

1. Haqqul I. Ogahiy shaxsi va shoirligi / Hayot, adabiyot va abadiyat. - T: Tafakkur,

karam ko'rsatsa, ba'zisi zulmu sitamni ixtiyor etgani, ba'zisidan elga rohat yetsa, ba'zisidan ranju mehnat qaytgani kabi dalillarning o'ziyoq yangi tojdorni o'tkinchi dunyoda yaxshilikka yo'ldosh bo'lishiga undardi.ⁱⁱ Muhammad Rahimxoni soniy adolatli va komil sulton bo'lib yetilishi uchun o'tmishdagি Ogahiy adabiy merosi xalqimizning ardog'ida mo'tabar ma'naviy xazina. Uning qadr-qimmati zamon o'tgan sari ortib boradi. Uning nasihatomuz, ma'shuqona, ruhiga ta'sir etish vositasi, badiiy usul bo'lib,Ogahiy bundan mahorat bilan foydalangan. Ma'rifiy nuktaposhlikdan esa maqsad nihoyatda katta edi. Ogahiy olam va odamning yaralishidan boshlab, payg'ambarlaru o'tmish xonu beklar tarixidan tortib o'z zamonasidagi amaldorlargacha – bari barisining qismatidan adabiy saboq beradi. Bu saboqning zaminida mulku millat manfaatlari, katta yo'lning boshida turgan yo'lchini ulug', to'g'ri yo'lga yo'Idash, uni bu mashaqqatli yo'ldagi mushkulotlardan, xatarlardan ogohlantirish, muhofaza etishdek muddao yotardi.

**Budur doimo charxi zolim ishi,
Ki, zulmidin aslo qutulmas ishi.**

Ogahiy ezguga ham yovuzga ham tarafkashlik etmasdan, holisona nuqtai nazarda tutib tasvirlaydi.ogahiy debochasining matni an'anaviy sayqaldor uslubda yozilgani, tilning shirador va samimiyligi, saj usuli bilan muzayanligi, fikr-mulohazalarining nazmiy parchalar vositasida dalillanib borishi bilan go'zaldir. Debocha Ogahiy tabiiy tamoyillarini aks ettirishi bilan ilmiy qimmatga ham egadir. Ogahiyning yuksak insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan g'oyalari xon va shoir

Feruzning siyosiy-ma'rifiy tarbiyasiga ta'sir qilgan. U tarixchi olim sifatida Xiva xonlariga, yirik tarixiy shaxslarga bag'ishlab qasidalar yozgan. Ogahiyning «Qasidai nasihat» asari Feruzga bag'ishlangan. U o'z nasihatlarida sultanatni boshqarishning yo'l-yo'riqlarini ko'rsatadi, mamlakat va xalqni adolat bilan idora etish yo'llarini belgilab beradi. Qasida masnaviy janrida yozilgan bo'lib, unda shoirning siyosiy-ma'rifiy qarashlari yorqin aks etgan.

- 1.ⁱⁱ Ziyo net uz
2. Xorazmiy uz.
3. Огахий мусамматлари Тошкент”Мумтоз сўз” 2019 йил

Foydalanaligan adabiyotlar

1. Haqqul . Ogahiy shaxsi va shoirligi / Hayot, adabiyot va abadiyat. - T: Tafakkur, 11-12 betlar
2. Ogahiy musammatlari Toshkent”Mumtoz so‘z” 2019 yil. 17-bet
3. 3.ⁱⁱ Ziyo net uz
4. Xorazmiy uz.